

# **МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ**



*Илимий-методикалық журнал*

---

**2023**

**6/2-сан**

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы  
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрәпинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

6/2-сан 2023

декабрь

*Шөлкемлестириўшилер:*

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў Министрлиги,  
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

**Редактор:**

**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ  
Нағмет АЙЫМБЕТОВ  
Адхамжон АБДУРАШИТОВ  
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Алишер АЛЛАМУРАТОВ  
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ  
Интизар АБДИРИМОВА  
Мавлюда АЧИЛОВА  
Нуриддин АЧИЛОВ  
Тўлқин АЛЛАЁРОВ  
Марифжон АХМЕДОВ  
Умида БАҲАДИРОВА  
Фархад БАБАШЕВ  
Ботир БОЙМЕТОВ  
Гулзода БОЙМУРОДОВА  
Шахло БОТИРОВА  
Маманазар ДЖУМАЕВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Алишер ЖУМАНОВ  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Холбой ИБРАГИМОВ  
Умида ИБРАГИМОВА  
Лола ИСРОИЛОВА  
Меруерт ПАЗЫЛОВА  
Асқарбай НИЯЗОВ  
Сабит НУРЖАНОВ  
Захия НАРИМБЕТОВА  
Мехри НАРБАШЕВА  
Улфат МАҲКАМОВ  
Уролбой МИРСАНОВ  
Нуржан МАТЧАНОВ  
Сафо МАТЧОН  
Шукурулло МАРДОНОВ  
Шахсанам МАТУПАЕВА

Лобар МУХТОРОВА  
Камаладин МАТЯКУБОВ  
Раъно ОРИПОВА  
Бахтиёр РАХИМОВ  
Фурқат РАЖАБОВ  
Сайёра РАХМОНОВА  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Барлықбай ПРЕНОВ  
Дилшода САПАРБАЕВА  
Феруза САПАЕВА  
Зайниддин САНАҚУЛОВ  
Қаххор ТУРСУНОВ  
Амина ТЕМИРБЕКОВА  
Нурзода ТОШЕВА  
Қуанишбек ТУРЕКЕЕВ  
Гулноз ТУРАЕВА  
Гулмира ТОЖИБОЕВА  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Дилбар ҚАРШИЕВА  
Вохид ҚАРАЕВ  
Дилбар ҚОДИРОВА  
Ризамат ШОДИЕВ  
Абдушукур ШОФҚОРОВ  
Дилфуза ШАББАЗОВА  
Зафар ЧОРШАНБИЕВ  
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Тармиза ХУРВАЛИЕВА  
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ  
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ  
Гулрухсор ЭРГАШЕВА  
Гавхар ЭШЧАНОВА  
Қонысбай ЮСУПОВ



<b>Abdirasulov L.X.</b> O'quvchilarga texnologik ta'lim darslarini o'qitishda atrof muhit muhofazasi tushunchalarini shakllantirish .....	191
<b>Yusupova D.U.</b> Talabalarining klinik tafakkurini rivojlantirishda simulyatsion yoki imitatsion metoddan foydalanishning afzalliklari .....	196
<b>Nurullayeva G.O'</b> . Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ta'lim sohasida olib borilgan islohotlar .....	201
<b>Xamrayev N. Z.</b> Rivojlangan davlatlar ta'limida kredit modul tizimini Bolonya tajribasi misolida joriy etish shakllari va bosqichlari .....	205
<b>Djurayev I.I.</b> Raqamli olamda masofaviy ta'limni rivojlantirish mexanizmlari .....	212
<b>Turdaliyev S.M.</b> Virtual texnologiyalarning imkoniyatlari .....	217
<b>Ergasheva X.M.</b> Oliy ta'lim muassalari ta'limi jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanish zaruriyati .....	224
<b>Artikova K. K.</b> Kreativ yondashuv asosida o'quv va tarbiya jarayonlarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari .....	230
<b>Jo'rayev F. R.</b> O'zbek folklori vositasida oilada milliy va ma'naviy tarbiyani shakllantirish .....	236
<b>Mamadaliev K.</b> Ta'lim tizimida axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llashning dolzarbligi .....	242
<b>Eshmurodov Sh.E.</b> Kutubxona axborot tizimlarning rivojlashi tendensiyasi va imkoniyatlari .....	248
<b>Zoirova L.X.</b> Tibbiyot oliygohlarida "Radiatsion tibbiyot va texnologiyalar" fanidan laboratoriya mashg'ulotlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish .....	254
<b>Chorshanbiyev Sh. E.</b> Oliy ta'lim muassalarida talabalarining ekologik kompetensiyasini shakllantirishdagi metodik yondashuvlar .....	260
<b>Narimbetova Z. A.</b> Umumta'lim maktablarida geometriyani o'qitishning me'yoriy omillari .....	267
<b>Razokova N.K.</b> O'quvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'zlashtirish darajasini oshirish .....	271
<b>Xusnetdinov U. I.</b> Ekologik ma'rifat-talaba yoshlarda ekologik madaniyat kompetensiyasini shakllantirish .....	275
<b>Kuchkinov A. Yu., Rixsimboyeva N.D.</b> Ekota'lim samaradorligini oshirishda steam integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasi .....	283
<b>Beketov N. A.</b> Kasbiy mazmunli masalalarning sifatli ta'limdagi ahamiyati (matematika fanini o'rgatish misolida) .....	288
<b>Nurgizarova Z.B.</b> Zamonaviy kadrlar tayyorlash va adabiyot ta'limini o'rganishda yangi ped texnologiyalar .....	292
<b>Suleymanova T.G.</b> O'smirlarining kasb tanlash jarayonida tadbirkorlik faoliyatga yo'naltirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari .....	296
<b>Байметов М.М.</b> Педагогика олий таълим муассасаларида ишлаб чиқариш амалиётини ташкил этиш .....	302
<b>Анорқулова Г.М.</b> Бўлажак технология ўқитувчиларини инновацион фаолиятга тайёрлашнинг методик асослари .....	307
<b>Кудайназаров А.К.</b> Жамиятда инновацион жараёнлар ва инновациялардан фойдаланишга бўлган олимларнинг қизиқишлари .....	313
<b>Salimova S.F., Amonova D.N.</b> Biologiya ta'limini o'qitishda virtual laboratoriyani ishlab chiqishning didaktik ahamiyati .....	318
<b>Yunusov M.M.</b> "Sulfat kislota ishlab chiqarish" mavzusini rolli o'yinlar bilan o'qitish .....	326
<b>Salimova S.F., Kalandarova D.S.</b> Zoologiya fanini o'qitishda o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakasini oshirish yo'llarida virtual laboratoriya mashg'ulotlarining didaktik modeli .....	337
<b>Niyozov A.K., Nurmurodova M.A.</b> Ta'lim jarayonini tashkil etishda 4K – ta'limning o'rni .....	344
<b>Қаҳхаров А.А.</b> Узлуксиз таълимда график фанларни ўқитишда талабаларнинг график компетенциясини ривожлантириш усуллари .....	352
<b>Исхакова М.Р.</b> Андрагогик ёндашув асосида мактабгача таълим ташкилотлари педагоглари малакасини ошириш жараёнини такомиллаштириш мазмуни .....	360
<b>Инназаров М.А., Обидов А.Э.</b> Инновацион ёндашув асосида қайта тайёрлаш ва малака ошириш курслари ўқув-методик таъминотини такомиллаштириш .....	367
<b>Halimov O'.H.</b> Kompyuter grafikasidan foydalanib bo'lajak muhandislarning loyihalash kompetentligini rivojlantirish .....	373



## KASBIY MAZMUNLI MASALALARNING SIFATLI TA'LIMDAGI AHAMIYATI (MATEMATIKA FANINI O'RGATISH MISOLIDA)

*Beketov N. A.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi v.b.dotsenti*

**Tayanch soʻzlar:** kasb, ta'lim, dars, o'quvchi, matematika, stereometriya, ko'nikma.

**Ключевые слова:** профессия, образование, урок, ученик, математика, стереометрия, навыки.

**Key words:** profession, education, lesson, textbook, mathematics, stereometry, skills.

Bugungi axborotlar oqimi kuchli rivojlanayotgan bir davrda o'quvchilarimizga katta imkoniyalar berilmoqda. Fan va texnika sohasidagi yangiliklar va yaratilayotgan yangi kashfiyotlar tezda o'z o'quvchisiga yetib boradi. Jahonninig ko'pgina davlatlarida rivojlanishning yuqori cho'qqisiga chiqishining asosiy mezonini bo'lgan ta'lim sifatiga e'tibor berish, uning samarasi sifatida esa ilmiy ziyolilar sonini oshishi bilan bogliqligi e'tirof etiladi. Mamlakatimizda yoshlarni ilmiy sohalar bo'yicha bilimlarini oshirishga qaratilgan chora va tadbirlar kolami juda keng. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida 2021-2022-o'quv yilidan boshlab "Kasbga yo'naltirish tizimi»ni joriy etish, 7-sinfdan boshlab o'quvchilar o'rtasida interaktiv so'rovnomalar o'tkazish, 7-9-sinflar uchun har oyda "Kasblar oyligi" mavzusidagi tadbirlar tashkil qilish, kasbga yo'naltirishda "ustoz-shogird" tizimini yanada rivojlantirish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Ushbu qarorlardan maqsad yoshlarni kasbga yo'naltirish, ish bilan ta'minlash davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Bu borada maktab bitiruvchilarini zamonaviy kasblarga to'g'ri yo'naltirish katta ahamiyatga ega.

O'quvchilarning esa o'ziga mos kasbni tanlashda maktab ta'limidagi o'qituvchilarning kasb sohasini egallashida kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatini amalga oshirishi muhim qismi hisoblanadi.

Xususan, matematika fanini o'qitishda kasbga yo'naltirish ishlari dars jarayonlarida quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Matematik tushuncha va qonuniyatlar kasb sohalari bilan o'zaro bog'lab tushuntiriladi;

2. Matematik kasbiy mazmunli masalalardan foydalaniladi;

3. Matematika darslarida kasbiy sohalarga aloqadorlikda aks ettirilgan matematik o'quv-ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Matematik kasbiy mazmunli masalalardan foydalanish deganda avvalo kasbiy mazmunli masala tushunchasini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Kasbga yo'naltiruvchi amaliy masalalar bu kasbiy mazmundagi masalalar bo'lib, bir tomondan fanga aloqador, ikkinchi tomondan kasbiy faoliyat uchun foydali masalalar tushuniladi.

Matematika fani o'qituvchisi tomonidan o'quvchilarni kasbga yo'naltirish imkoniyati boshqa fanlarga nisbatan yuqoriroq bo'lib, dars jarayonlarida o'quvchilarda turli masalalar orqali

kasblar haqidagi tushunchalarni shakllantirish mumkin. O'quvchi kasbiy mazmunli masala yechish davomida bir tomondan matematik bilimlari mustahkamlansa, ikkinchi tomondan kasbga bo'lgan munosabati shakllanadi.

Kasbiy mazmunli masalalar quyidagi talablarga mos kelishi ularning ta'sir samaradorligini oshishiga xizmat qiladi:

1. Masalada keltirilgan amaliy vaziyat o'quvchilarga tushunarli bo'lishi, ko'psonli noma'lum atamalar kiritilmasligi, kiritilgan atamalar oson tushuntirilishi va tushunilishi;

2. Kasbiy amaliy masala o'quvchi bilim darajasiga mos ravishda tanlab olinishi va o'quvchi tomonidan masala yechimini topishning imkoni mavjud bo'lishi;

3. Kasbiy mazmunli masala mavjud matematika kursi o'quv rejasiga mos bo'lishi va o'quv jarayonining zaruriy tarkibiy qismi bo'lib bunda matematika ta'limi maqsadiga erishishning mantiqiy davomi bo'lishi va xizmat qilishi kerak.

Bunda mavzuning maqsadiga muvoffiq holda oqituvchi tomonidan kasbiy mazmunli masala tanlanadi. Bu orqali matematik bilimlarni mustahkamlash bilan birga kasbga bolgan qiziqishlarini orttirish mumkin.



Ma'lumki maktabda ta'lim berishda kasbiy kompetensiyalarni shakllatirish borasida bir qancha olimlar ish olib bormoqda. Shu jumladan, N.R.G'aybullayev matematika ta'limida kasbiy mazmunli masalalarni yechish bosqichlarini quyidagicha yoritadi:

1. Formallashtirish bosqichi. Bu bosqichda berilgan real(masala)ning, unga adekvat bo'lgan matematik modeli quriladi.

2. Masalalarni model ichida yechish bosqichi. Bu bosqichda berilgan amaliy mazmunli masalalarning konkret mazmuni hisobga olinmay, I bosqichda tuzilgan matematik masalalar yechiladi.

3. Interpretatsiyalash bosqichi. Ushbu bosqichda tuzilgan formal matematik masalalarning yechimi, dastlabki berilgan amaliy mazmunli masalalar «tili»ga ko'chiriladi.

Kasbiy mazmundagi masalalardan namuna tahlil qilamiz:

Masala. Oddiy maktab o'qituvchisining oylik maoshi 1,3 million so'm, ishdan tashqari har xil faoliyatidan keladigan daromadi esa oyiga 200000 so'mni tashkil etsa:

1) o'qituvchining kunlik, oylik, choraklik va yillik daromadlari diagrammasini tuzing;

2) agar uning kunlik o'rtacha harajatlari 15000 so'mni tashkil etsa, o'qituvchining o'z oilasiga keltiradigan kunlik, oylik, choraklik va yillik real daromadlarini aniqlang va diagrammasini tuzing.

Yechish. O'qituvchining bir oylik umumiy daromadini hisoblaymiz  
 $1300000 + 200000 = 1500000$  so'm.

Bir oyni o'rtacha 30 kun deb hisoblab, uning bir kunlik daromadini topamiz  
 $1500000 \div 30 = 50000$  so'm.

U holda uning choraklik va yillik daromadlari

$1500000 \times 3 = 4500000$  so'm va  $1500000 \times 12 = 18000000$  so'm bo'ladi.

O'qituvchining kunlik, oylik, choraklik va yillik daromadlari diagrammasini tuzamiz.

2) o'qituvchining kunlik harajatlari 15000 so'm bo'lsa, uning kunlik real daromadi

$50000 - 15000 = 35000$  so'mni tashkil etadi, u holda:

– o'qituvchining oylik real daromadi  $35000 \times 30 = 1050000$  so'mni,

– choraklik real daromadi  $1050000 \times 3 = 3150000$  so'mni,

– yillik real daromadi  $1050000 \times 12 = 12600000$  so'mni tashkil etadi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, matematikani o'qitishda o'quvchilarga faqat matematik bilim va ko'nikmalarni berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ulardagi kasbiy tushunchalarini ham shakllantirib borish asosiy masala



hisoblanadi. Chunki o'quvchilar kelajakda matematik bilimlarini amaliy va kasbiy jarayonda qo'llay olsagina matematika ta'limidagi asosiy vazifa bajarilgan hisoblanadi. Shuning uchun matematikani o'qitishda kasbiy mazmunli masalalarning o'rni alohida ahamiyatga egadir.

#### Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida talim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni, Toshkent, 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son.
2. Кондаков И.М. Диагностика профессиональных установок подростков. Вопросы психологии №1997 стр.122-130
3. Psixologik xizmat. Darslik/ Z.T.Nishanova, Sh.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymonov. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T-2014. -424 b.
4. Alimatova G.R. -»Kollej o'quvchilarining matematik tayyorgarligini kasbga yo'naltirish metodikasi». //Diss...ped.fan.nomzod.// Toshkent-2004. 130 bet
5. Algebra va analiz asoslari: O'rta maktabning 10-11-sinflari uchun darslik/ Sh.O. Alimov, Y.M.Kolyagin, Y.V.Sidirov va boshq.-T.:O'qituvchi, 1996. -256 b.

#### РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilar kreativ rivojlanishining ayrim metodik masalalari, zamonaviy dars tahlili bayon etilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье изложены некоторые методические вопросы креативного развития учащихся в современном образовательном процессе, анализ современного урока.

#### SUMMARY

This article presents some methodological issues of creative development of students in the modern educational process, analysis of the modern lesson.